

taqsimlashga asoslangan investitsiya vositalari mudoraba (kapital va mehnat sherikchiligi) va mushoraka (sharikchilik) hamda sukuk (islom qimmatli qog’ozilardan keng foydalaniladi. Umuman olganda, islomiy investitsiyalarning maqsadi shariat tamoyillariga rioya qilgan holda daromad keltirish va ijtimoiy mas’uliyatli hamda axloqiy jihatdan iqtisodiy rivojlanishga ko’maklashishdir.

Islomiy investitsiyalarga bugungi kunda nafaqat musulmon mamlakatlarida shuning bilan birgalikda musulmon bo’lmagan mamlakatlarda ham talab keskin oshib bormoqda. Shunday ekan, O’zbekistonda ham mazkur yo’nalishni rivojlantirishga urg’u berish ko’plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishga katta yordam bergan bo’lar edi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo’lgan O’zbekiston uchun muhim tavsiya eng avvalo, me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholiga islom moliyasiga doir tegishli tushuntirish ishlarini olib borish va ular ongida islom moliyasiga doir ma’lum bilim, ko’nikmalarni shakllantirish, shuningdek, turli davlatlar ya’ni investor mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kerak bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Islamic Corporation for the Development of the Private Sector-Refinitiv. "Islamic Finance Development Report 2022*
2. http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html
3. http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html
4. *Mukhriz Mudaris Mahmud, Islamic Investment Opportunities, presented on 8th September 2001, www.klse.com.my*
5. *Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.- Toshkent: "Sharq" NMAK, 2012.*

O’ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Moliya fakulteti 2-kurs talabasi


So’ngi bir necha o’n yillikda musulmonlar o’z hayotlarini islomiy tamoyillar asosida qayta qurishga intilmoqdalar. Ular o’tgan asrlarda G’arbning siyosiy va iqtisodiy hukmronligi ularni, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ilohiy hidoyatdan mahrum qilganini qattiq his etadilar. Va natijada, siyosiy erkinlikka erishgach, omma o’zining islomiy qarashlarini qayta tiklashga, jamoaviy hayotini islomiy ta’limotga asosan tashkil etishga intilmoqdalar. Islom dinida Allohga itoat nafaqat ibodatda, balki uning iqtisodiy faoliyatida talab qilinadi. Va albatta bunday faoliyatda ayrim zohiriy manfaatlardan voz kechish lozim chunki bu jamiyat va jamoaviy manfaatlariga zid bo’lishi mumkin.

Islomiy moliya tarmog’i so’ngi yillarda jahonda tobora rivojlanib borayotgan hamda innovatsion moliyalashtirishni o’zida mujassamlashtirgan sohalardan biri hisoblanadi. Islomiy moliya sanoati butun dunyodagi aktivlar ulushi sifatida katta miqdorga ega bo’lmasa-da, hozirgi paytdagi ilmiy izlanishlar, hozirgi o’sish

tendensiyalari hamda nazorat va tartibga solishi tizimidagi islohotlar natijasida, kelajakda uning istiqbolga erishishini taxmin qilishimiz mumkin.

Islom iqtisodiyotining asosiy mohiyati shundaki, u ma’naviy mas’ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdan iborat hisoblanib, o’ziga xos jihatlaridan biri jamiyatning va shaxsning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirish ekanini ta’kidlaydi. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg’unlik) va iqtisodiy o’sishni ta’minlash mumkin emas, deb hisoblaydi. Islom iqtisodiyotining asosiy qadriyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin²¹⁰:

- Islom ma’naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;
- Teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;
- Odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag’rikenglik.



**1-rasm. Islomiy moliya aktivlarining o’sishi,
(2015-2021, mlrd. dollarda)²¹¹**

Jahonda islomiy moliyaga talab ortib borgan sari, uning 2021-yil yakuniga ko’ra, aktivlari 4 trillion dollarni tashkil etdi va kelgusi reja 6 trillion dollarga ko’paytirish maqsad qilingandi. Shu bilan birga, islom moliyaviy muassasalar soni 1700 taga yaqinlashgan. Islom moliyasining jami aktivlari 2022-yilda 11%ga o’sib, 4,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, bu asosan bank sektori va sukuk bozoridagi o’sish hisobiga qo’llab-quvvatlandi. O’tgan yil davomida jahon moliya sanoati xalqaro tovar narxlarining o’zgaruvchanligi va global ta’minot zanjiri bilan tavsiflangan noaniq iqtisodiyot bilan kurashdi, bu esa pandemiyadan oldingi barqarorlikka qaytmagan, ikkalasi ham inflyatsiya darajasini oshirishga yordam bergan. Yil davomida moliyaviy institutlar (va ularning mijozlari) markaziy

²¹⁰ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>

²¹¹ ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022: Embracing Change ma’lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

banklar pul-kredit siyosatini kuchaytirgan va daromadlilikni eng yuqori darajaga ko‘targan bir necha marta stavkalarini oshirgan paytlarda barqarorligini ushlab turishdi.²¹²

1-jadval

Global islom moliyasi aktivlari taqsimlanishi (2017-2021)²¹³

| Sektorlar | Islom moliyasi aktivlar ulushi | | Umumiy aktivlar (mlrd. dollarda) | | Muassasalar soni | |
|---|--------------------------------|------|----------------------------------|------|----------------------------------|----------------------------------|
| | 2017 | 2021 | 2017 | 2021 | 2017 | 2021 |
| Islom banklari | 71% | 70% | 1721 | 2765 | 505 | 566 |
| Takaful (islomiy sug'urta) | 2% | 2% | 46 | 73 | 324 | 335 |
| Boshqa turli islom moliya muassasalari | 6% | 4% | 135 | 169 | 560 | 778 |
| Sukuk (islomiy obligatsiya) | 17% | 18% | 426 | 713 | 2590 (chiqarilgan sukuk soni) | 4426 (chiqarilgan sukuk soni) |
| Islom jamg'armalari | 4% | 6% | 110 | 238 | 1410 | 1903 |

Islom jamg'armalari (6%), islom moliya muassasalari (4%), takaful (2%) sektorlari yillar davomida sekinlik bilan rivojlanib borayotgan moliyaviy xizmatlardan biri bo'lib qolmoqda. Soha ekspertlarinig aytishicha, islom moliyaviy tizimi keyingi yillarda ham sezilarli o'sish kuzatiladi. 1-jadvalda ko'rsatilganidek, islom banklari va sukuk (islomiy obligatsiyalari) soni ancha oshgan. Islom moliyaviy muassasalar safiga qo'shilib borayotgan yangi tashkilotlar hamda islom moliyasini tadbqiq etayotgan davlatlar soni tobora ko'payib borishi bu tizimni kelajakda istiqbolga ega ekanidan dalolat beradi.

O'zbekistonliklarning taxminan 20 foizi diniy qarashlarga asosan islomiy kredit mahsulotlaridan foydalanish ehtiyoji borligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida aholini qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini ko'payishiga, jamg'armalarning harakati iqtisodiyotda nafaol bo'lishiga hamda qo'shilgan qiymat yaratmasdan turishiga sabab bo'ladi.²¹⁴ Dinimizda esa, Alloh taolo Qur'oni Karimda: “Alloh tijoratni halol, riboni harom qilgan”, deb marhamat qilgan (Baqara surasi, 275-oyat). Shu sababli musulmonlar ribo yoki o'zimizning tilda aytganda sudxo'rlik harom qilingani tufayli banklarga depozit qo'ymaslik yoki kreditlarni olmaslikka harakat qilishadi. Ayrim tahlilchilar fikriga ko'ra, dunyodagi barcha musulmonlarning to'rtidan uch qismi an'anaviy banklardan

²¹² ICD – LSEG Islamic Finance Development Report 2023: Navigating Uncertainty

²¹³ ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022 ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

²¹⁴ <https://kun.uz/news/2023/06/13/islom-moliyasi-soglom-iqtisodiyotga-qadam>

foydalanishmaydi. Islom bank tizimi esa bunday noqulayliklarni bartaraf etadi. Bundan tashqari, Toshkentdagi moliyaviy forumda, Apex bank raisi Bahrom No‘monovning fikricha, O‘zbekistonga Islom moliyasini tadbqiq etish orqali yiliga 10 milliard dollargacha jalb etilishi mumkinligini aytib o‘tdi. Hozirda Markaziy Bank va vazirliklar islomiy moliya faoliyatini qonuniylashtirish chora-tadbirlari ustida ishlamoqda. Bunga asosiy sabab, O‘zbekiston aholisining deyarli 90%i Islom diniga e‘tiqod qiladi. Shu bilan birga, Islomiy moliya o‘zining shaffofligi va etikasi, xatar va foyda teng taqsimlanishi bilan aholi e‘tiborini tortmoqda.

2018-yildan boshlab O‘zbekistonda Invest Finance Bank va Trastbank Islom taraqqiyot korporatsiyasi bilan moliyaviy kelishuvga erishdi. Keyinchalik esa, Asakabank, Kapitalbank, Hamkorbank, O‘zsanoatqurilishbank, Turonbank, Asia Alliance bank bilan **ham** shartnoma imzoladi.²¹⁵

O‘zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yuritishga imkoniyat yaratuvchi mikromoliya tashkilotlari O‘RQ-765-sonli “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun imzolandi. Mikromoliya tashkilotlari tadbirkorlarga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatishi mumkin.²¹⁶

Xulosa qilib aytganda, Islomiy moliya bu – sherikchilikka, aktivlar bilan ta‘minlanganlikka asoslangan, barqaror, ekologik, axloqiy va ijtimoiy mas‘uliyatli moliya bo‘lgani bois, uning iqtisodiyot, atrof-muhit, jamiyat uchun hech qanday zarari yo‘q, aksincha, an‘anaviy moliya tizimidan ko‘ra shaffof va moliyalashtirish obyekti aniq va ravshan bo‘lgan moliya tizimi hisoblanadi. Uni rivojlantirish kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shishi muqarrar.

ISLOM BANKCHILIGI VA AN‘ANAVIY BANKLARNING QIYOSIY TAHLILI

***Jiyanov Uktam Panjiyevich,**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Islom
iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Zamonaviy dunyoda bank tizimi iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik va rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, bank faoliyatiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular turli tamoyillar va qadriyatlarga asoslangan an‘anaviy va islom banklaridir. Islom banklari jahon moliya tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etib, mutaxassislar va jamoatchilik e‘tiborini tortmoqda. Shu bilan birga, an‘anaviy banklar iqtisodiyotda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Shuning uchun islom banki va an‘anaviy bank ishini qiyosiy tahlil qilishning dolzarbligi bank faoliyatining har bir turining

²¹⁵ <https://kun.uz/news/2019/06/23/oav-ozbekiston-ikki-yilda-islomiy-iqtisodiyotni-shakllantirdi>

²¹⁶ <https://t.me/huquqiyaxborot/11555>